



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

**"O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQAROHAMKORLIK MASALALARI"**
mavzusidagi xalqaro konferensiya

**"ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA, TIL
KORPUSLARI VA TURKIY TILLAR
PLATFORMALARINI YARATISH
MUAMMOLARI"**
nomdagagi sho'ba materiallari

(2021-yil 18-oktabr)



Toshkent – 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**"O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI"**
mavzusidagi xalqaro konferensiya

**"ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA, TIL KORPUSLARI VA TURKIY
TILLAR PLATFORMALARINI YARATISH MUAMMOLARI"**
nomdagi sho'ba materiallari

(2021-yil 18-oktabr)

Toshkent – 2021



UO‘K: 004.8+81’32

KBK: 81.1

O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari / Xalqaro konferensiya, “Zamonaviy leksikografiya, til korpuslari va turkiy tillar platformalarini yaratish muammolari” nomidagi sho‘ba materiallari. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 18.10.2021. – 452 b.

Ushbu to‘plamdan 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami (32 yilligi) munosabati bilan tshkil etilgan “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilishi mo‘ljallangan AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tili ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha hamda PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” (olima ayollar granti) doirasida tashkil etilgan “Zamonaviy leksikografiya, til korpuslari va turkiy tillar platformalarini yaratish muammolari” nomli sho‘basi materiallari joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan kompyuter lingvistikasi sohasi vakillari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va kelajak sohalariga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Sirojiddinov Sh.S. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, f.f.d., professor

Ilmiy muharrirlar:

Raupova L. ToshDO‘TAU, professor, f.f.d.

Mengliyev B. ToshDO‘TAU, professor, f.f.d.

Abjalova M. ToshDO‘TAU dots. v.b., f.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

Normurodova N. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, dotsent, f.f.d.

Shaxabitdinova Sh. Andijon davlat universiteti, professor, f.f.d.



TASHKILIY QO'MITA

Toshqulov Abduqodir Hamidovich (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi)

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich (O'zR Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Raupova Laylo Raximovna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Normurodova Nozliya Zarilovna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Shaxabitdinova Shoxida Xashimovna (Andijon davlat universiteti)

Abdirashidov Zaynabidin Sharabidinovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Мұратбек Багила Курманбеккызы (Qozog'iston, K.Jubanov nomidagi Aqto'be viloyat universiteti)

Elov Botir Boltayevich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jo'raqo'ziyev Nodir Imomqo'ziyevich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Abjalova Manzura Abdureshetovna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

TAHRIR HAY'ATI

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Raupova Laylo Raximovna

Normurodova Nozliya Zarilovna

Shaxabitdinova Shoxida Xashimovna

Elov Botir Boltayevich

Мұратбек Багила Курманбеккызы

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna

Abjalova Manzura Abdureshetovna

Abdiraimov Shohruh Samad o'g'li

Gulyamova Ozoda Shavkatovna

Xusainova Zilola Yuldashevna

Xudayberganov Nizomaddin O'ktamboy o'g'li



Detektiv asarlar tilining pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish

G.Niyazova*

Annotatsiya: maqola detektiv asarlar tilining pragmatik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish, tilning psixologik va ijimoiy omillari, badiiy adabiyotda gender omilining namoyon bo'lishi haqida

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, kognitiv-pragmatik va sotsiopragmatik yondashuv, kommunikativ va nokommunikativ maqsadlar, tilning ichki tuzilishi, pragmatik tahlil, gender tadqiqot*

Zamonaviy ilm-fan, xususan, tilshunoslik, hodisalarni o'rganishga aniq bir fanlararo yondashuvlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Ayrim dalillarni tushuntirishda tegishli fanlardan olingen ma'lumotlarni jalb qilish zarurati antropotsentrizm yo'nalishidagi ilmiy obyektlarni ko'rib chiqishda diqqatning o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Ilgari tadqiqotchilarining diqqat-e'tibori, asosan, tilning ichki tuzilishi bilan bog'liq masalalarga qaratilgan bo'lsa, endi uning kommunikativ va nokommunikativ maqsadlarga erishish uchun kishilarning aloqa vositasi sifatida faoliyat ko'rsatishi, jamiyatda o'zaro munosabatlarini amalga oshirish masalalari birinchi o'ringa chiqadi.

So'zlovchi va tinglovchi ongiga ta'sir etuvchi ijtimoiy me'yorlar va stereotiplar ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga olishni va shunga mos ravishda ularning xatti-harakatlarini, jumladan, nutqni haqiqiy muloqot vaziyatida tuzatishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy tilshunoslik shu tariqa til hodisalariga kognitiv-pragmatik va sotsiopragmatik yondashuvlar kirib kelishi faollashdi. Bunga bir tomonidan, til aloqa vositasi va ikkinchi tomonidan, notiqlarining ijtimoiy ongingin o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan hodisa sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikning ekspansionizm, ya'ni boshqa fanlarga, birinchi navbatda, gumanitar fanlarga kirish va tadqiqot obyekti hamda subyektining kengayishi, murakkablashuvi kabi munosabatning paydo bo'lishiga olib keldi. Avvalo, u o'sha inson ilmlarni ta'kidlash lozim, ma'nosи Boduen de Kurtine tomonidan yozilgan edi: "tilda ham psixologik, ham ijtimoiy omillar faoliyat ko'rsatganligi tufayli psixologiyani tilshunoslik uchun yordamchi fanlar, so'ngra sotsiologiyani jamiyatda kishilarning muloqot fani, ijtimoiy hayot fani deb

*A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "Ingliz tili" kafedrasi katta o'qituvchisi



hisoblashimiz kerak”. Inson biosotsial mavjudot bo‘lib, tug‘ilgandan boshlab uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi ma'lum qobiliyatlarni shakllantirish uchun moyillikka ega. Biroq bu o‘ziga xos ruhiy xususiyatlarni shakllantirish faqat jamiyatda, avvalgi avlodlar tomonidan yaratilgan madaniyatni o‘zlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayon shaxsning ijtimoiylashuvi deb ataladi.

Ijtimoiylashuvning kuchli omili, ehtimol mavjud bo‘lganlarning eng kuchlisi tildir. Til – shaxsning boshqa odamlar bilan muloqot orqali va unga muvofiq muayyan qarashlar, e’tiqodlar, baholar va hokazolar tizimi orqali “o‘zlashtiradigan” ijtimoiy xotiraning bir qismidir. Odamlar katta guruhlarga xos, bir butun sifatida jamiyat, uning yodda shakllanadi. Bu tizim shaxsning xulq-atvori uchun ma'lum bir asosni tashkil etadi. Muayyan odamlar ongida, u dunyoning muayyan shaxsiy modeli ichiga o‘z tajribasiga muvofiq rivojlanadi. Insonning dunyodagi ijtimoiy, madaniy va kognitiv yo‘nalishini belgilaydigan omillardan biri jinsdir.

Insonning jinsi vaziyatli rol emas, balki uning ekzistensial xarakteristikasi, aytish mumkinki, shaxsning ajralmas qismidir. Biz tasodifan “shaxs” so‘zini ishlatmadik. Inson ijtimoiylashuv jarayonida shaxsga aylanadi va jins bu jarayonning xususiyatlarini belgilovchi omillardan biridir. Shunday qilib, biologik xususiyat – insonning jinsi ham ijtimoiy oqibatlarga olib keladi, buning uchun zamonaviy fanda “gender” atamasi joriy etilgan. Gender tadqiqotlar ko‘rsatishicha, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqlar, xulq va ayniqsa, nutqiy o‘ziga xosliklar bilan bog‘liq. Buni badiiy matnlarda qahramonlar nutqini tahlil qilish orqali ham bilish mumkin. Jumladan, detektiv asarlarda erkak va ayol qahramonlarning nutqida muayyan o‘ziga xosliklar mavjud. Masalan, Tohir Malikning “Shaytanat” romanida shunday o‘rinlar mavjud: *Ayasi dadasingning qalin yoqali katta og‘ir paltosini kiyib olibdi. Uning nazarida ayasi paltoning og‘irligidan qiynalib inqillayotganga o‘xshardi. Ayasi tancha oldida to‘xtadi. U turdi. Ayasi uni o‘pib, yig‘ladi.*

– *Dadasi, tanchaning cho‘g‘ini ochib qo‘ying. Toychog‘ingiz sovqotibdi, – dedi. Dadasi engashib, ko‘rpaning bir tomonini ko‘tardi-da, kulini titib, cho‘g‘ni ochdi. Keyin chiqib ketishdi.* (T.Malik. Shaytanat. 6-b.)

Matnda ajratib ko‘rsatilgan jumla ayol kishining nutqi bo‘lib, o‘zbek ayolining eriga murojaati aks etgan. Birinchidan, boshqa xalqlardan farqli o‘laroq o‘zbek ayoli o‘z turmush o‘rtog‘ining ismini aytib chaqirmaydi. Qolaversa, doimo erga o‘zidan kattalarda, hatto erining yaqinlari bo‘lmish kichkina bolalargacha sizlab gapiradi.(Kelin bo‘lib kelguncha tug‘ilgan barcha bolalarni ham sizlaydi. Undan keyingilarini senlashi mumkin).



Bu o'rinda "dadasi" undalmasi va kesimga qo'shilib kelgan shaxs-son qo'shimchasining ko'pligi o'zbek tilida asosan ayollar nutqida uchraydi.

Til va shaxsnинг o'zaro munosabati matn shaklida harakat qiladi. Matn bir tomondan, insonning voqelikning ma'lum bir bo'lagini aks ettirishga intilishini va ikkinchi tomondan, o'z-o'zini ifodalashga intilishini amalga oshiradi.

Badiiy matnlar umuminsoniy va milliy madaniyatning bir qismidir va shunga ko'ra, ijtimoiy munosabatlari, stereotiplar, qadriyatlar tadqiqotchisi uchun qimmatli materialdir, boshqa tomondan, badiiy matnlar jamiyatning mavjud modeli, jumladan, gender tuzilishi haqida fikr yuritadigan muayyan hayotiy materialni o'z ichiga oladi. Yozuvchi va ayollar yozuvchilari yozgan badiiy asarlar tahlili erkak va ayol nigohida "dunyoni anglash" va bu anglash xususiyatlarini kashf etish imkonini beradi.

Yaqin-yaqingacha badiiy adabiyot unda gender omilining namoyon bo'lishi nuqtayi nazaridan tahlil qilinmagan edi. So'nggi o'n yilliklarda ayollar va erkaklarning nutqi aks etgan badiiy, publisistik va ilmiy matnlar gender nuqtayi nazaridan o'rganib chiqilmoqda.

Badiiy tilning gender aspektida o'rganilishi genderni lingvistik usullar bilan bilish uchun juda unumli hisoblanadi. Badiiy nutqda tilning o'z-o'zini ifodalash funksiyasi kabi vazifasi to'liqroq amalga oshadi. Shunday qilib, badiiy til orqali matndagi og'zaki obrazlar, uning yaratuvchisining dunyoqarashi ochib beriladi, bu esa boshqa omillar va muallif genderi bilan belgilanadi.

Detektiv romanlarda ayol va erkak nutqini gender farqlovchi turli lisoniy vositalar mavjud. Masalan, erkaklar nutqida uchraydigan ayrim lisoniy birliklar borki, ular ayollar muloqotida qo'llanmaydi:

Ajab, uyga qachon, kim bilan qaytdi ekan?

— Men hazil o'yin deb o'ylabman...

— Qimorda hazil bo'lmaydi, erkak.

— ...To'layman... faqat bugun emas. Bir-ikki yil ichida.

— Pulni-ku, to'larsan-a, xotining-chi? Xotiningni ham tikvorgansan-ku.

Bu xirildoq ovoz boshiga gurzi bo'lib urilib, sapchib tushdi. Beixtiyor:

— Noila! — deb baqirdi. (T.Malik. Shaytanat. 6-b.)

Ma'lumki, qimor o'ynash faqat erkaklarga xos bo'lib, ayrim g'arb mamlakatlarida boy ayollargina ba'zan qimor o'ynashi mumkin. Bu o'zbek ayollar uchun esa tamoman yotdir. Shu o'rinda ayrim nutqiy vaziyatlarda ayollar



tomonidan erga nisbatan “erkak” so‘zi kinoya, piching va maqtash ma’nolarida qo‘llaniladi. Ammo erkaklarning boshqa bir er kishiga shunday murojaat qilishi boshqa bir uslubiy, pragmatik ma’no kasb etadi. Bu o‘rinda qat’iyat, g‘urur va va’daga vafo qilish, bir so‘zli bo‘lishga undash ma’nosи anglashib turibdi.

Elchinning o‘z xotiniga ismini aytib murojaat qilishi aslida o‘zbek mentalitetiga unchalik xos emas, odatga ko‘ra er ham xotin ham bir-biriga agar farzandlari bo‘lsa, uning ismi bilan bo‘lmasa, ayollar “Ey”, “Hoy” kabi murojaat shakllarini qo‘llaydi. Erkak kishilar esa, ko‘pincha “O” deb murojaat qiladi. “Shaytanat” romaning bosh qahramoni Asadbek xotiniga murojaat qilganda aksariyat hollarda ismini aytib chaqirmaydi, uning o‘rniga ham biror lisoniy vositadan foydalanmaydi:

Asadbek o‘zini qo‘lga olishga harakat qildi:

— *Topildimi?*

Manzura “ha” deganday bosh irg‘ab, yig‘lab yubordi.

— *Tirikmi?*

Asadbek nima uchun bunday deb so‘raganini o‘zi ham bilmadi.

— *Xudoga shukr, tirik...— Manzura shunday deb labini tishladi.*

Shu so‘z Asadbekka jonini qaytarib berdi. Shart o‘rnidan turib xotiniga yaqinlashdi-da, uni ikki yelkasidan tutib, silkidi:

— *Unda nimaga yig‘laysan, nimaga vahima qilasan? (T.Malik)*

O‘zbek mentalitetida erkak kishi o‘z ayoliga senlab murojaat qilishi odatga aylangan. Ammo bu majburiy emas. Ayrimlar sizlab ham murojaat qiladi. Asadbek esa milliy mentalitetga mos ravishda o‘z ayoli bilan muloqotga kirishadi. Erkaklar o‘z ayollariga balandroq ohangda gapirishi, ba’zan so‘kinish hollari ham uchrab turadi. Bu badiiy asarlarda ham qahramoning xarakterini ko‘rsatish uchun qo‘llanadi.

Manzura boshini egib, yig‘lab yubordi. Asadbek, shu paytgacha xotinini chertmagan odam, tarsaki qo‘yganini o‘zi ham sezmay qoldi.

— *Gapir, deyapman!*

O‘zini qo‘lga olish uchun Manzuraga shu tarsaki kifoya edi.

— *Mengina o‘lay... qizingiz... aytolmayman, dadasi...*



— Gapir, xuddi bo'g'ib tashlayman, — Asadbekning ovozi tahdidli, bu shunchaki bir po'pisaga o'xshamas edi.

— Qizingizni bir ahvolda tashlab ketishdi

Ko'riniib turibdiki, erkak kishining ayol kishiga munosabati mazkur nutqiy vaziyatga ko'ra salbiy. O'zbek ayolining tabiatida itoatkorlik, erga hurmat tuyg'ularining borligi uning bu kabi qo'pol muomalaga ham sabr qilishiga sabab bo'lgani ma'lum. Shu o'rinda faqat ayollar nutqida uchraydigan undov so'zlarining qo'llanilishi mazkur asarda gender o'ziga xosliklar mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, "**mengina o'lay**" ifodasi o'zbek nutqida faqat ayollar tomonidan qo'llaniladi.

Jahon tilshunosligida pragmatik tahlilga alohida e'tibor berilayotgan bir paytda o'zbek tilshunosligida ham ayrim tadqiqotlar ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, muayyan badiiy asarning lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganish, sotsiopragmatik tahlil qilish o'zbek tilshunosligi uchun zarur xulosalarni bera oladi. Xususan, detektiv asarlar tahlil qilinganda o'zbekona milliy mentalitet ta'siri, jamiyat a'zolarining ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan so'z qo'llashi, jinoiy diskursda lisoniy vositalarning alohida ma'no xususiyatlarini ifoda qilishi namoyon bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика – психология – когнитивная наука. ВЯ, 1994. – № 4. – Москва. – С. 34-47.
2. Бодуэн де Куртенэ, И. А. Избранные труды по общему языкоznанию Текст. : в 2 т. / И. А. Бодуэн де Куртенэ. М.: Изд-во АН СССР, 1963. -Т. 1.-384 с., Т. 2.-391 с.
3. Сепир, Э. Избранные труды по языкоznанию и культурологии Текст. / Э. Сепир. М.: Прогресс, 1993. - 655 с
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 71, 211 б.
5. Тохир Малик. Шайтанат. Роман. 1-6- кисмлар.
<https://forum.ziyouz.com/index.php>
6. Мейлах Б. Сопоставительная литература и эстетика. – Л., 1958. – 199 с.
7. Гумбольдт В. фон. Характер языка и характер народа. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – С. 370-382.



O'zbek tilshunosligida detektiv asarlarning lisoniy tadqiqi

G. Niyazova* ,

M.Rajabov** ,

N.Zaripboyeva***

Annotatsiya: maqola tilshunoslikda detektiv asarlar tilining lisoniy tadqiqi, tilni o'rghanishda gender yondashuv masalasining dolzarbliji, badiiy matnlarning lisoniy tahlili, badiiy asar tilini stilistik aspektida o'rghanishning uslubiy xususiyatlariga doir tadqiqotlar haqida.

Kalit so'zlar: *dunyo tilshunosligi, detektiv, janr, lisoniy tahlil, stilistik aspect, badiiy ifoda mahorati, til vazifalari, lingvopoyetik vazifa, til vositalari, lisoniy birlik*

Dunyo tilshunosligida so'zlovchi, tinglovchi yoki o'quvchiga o'z fikrini aniq, lo'nda va tushunarli qilib yetkizishi uchun tilning ta'sirchan vositalaridan qay tarzda foydalanishi tobora ko'proq e'tibor jalb qilmoqda. Ayniqsa, jamoa bilan ishlaydigan, xalq bilan muloqotga tez-tez kirishadiganlarning jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, nutqiy vaziyat ta'sirida qanday lisoniy vositalardan foydalanish samara berishini, nutqdan ko'zlangan maqsadga eltuvchi, hal qiluvchi tayanch birliklar qaysi ekanligini bilishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada detektiv janrdagi matnlarni tahlil qilish muhim xulosalarga kelishga yordam beradi.

O'zbek tilshunosligida zamonaviy tahlil yo'naliishlari ko'payib bormoqda, bu tilni tadqiq etishni osonlashtiradi, qulaylik yaratadi va shu bilan birga tilning yashirin imkoniyatlarini namoyon etadi. Jumladan, o'zbek tining sotsiopraktik tadqiqi bugungi kun tilshunosligining ajralmas muhim qismiga aylanib bormoqda. Shuningdek, tilni o'rghanishda gender yondashuv masalasi ham nihoyatda dolzarb bo'lib bormoqda. Badiiy matnlarning lisoniy tahlili, uslubiy xususiyatlariga doir ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi.

Badiiy adabiyot til orqali ifodalanadi va o'z navbatida tilni ham bosqichma-bosqich rivojlantirib, boyitib boradi. Zero, adabiyotning asosiy quroli so'z,

* A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "Ingliz tili" kafedrasи katta o'qituvchisi

** A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

*** A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi



xususan, tildir. Muayyan badiiy asarning san'at darajasiga ko'tarilishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda mahoratiga ko'proq aloqador ekanligiga shubha yo'q. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o'ziga xosligi tahlil etilishi lozim. Ta'kidlash kerakki, badiiy asar tilini o'rganishda keng tarqalgan ikki asosiy yo'nalish mavjud va bu yo'nalishlarni X. Doniyorov va S. Mirzayevlar o'z tadqiqotlarida quyidagicha ta'riflaydi: «Tildagi o'sish-o'zgarishlarni o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan aspekt – lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lган munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi aspekt – stilistik aspekt». Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati, ayni holatga xos bo'lган xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiyligi va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy-badiiy asarlarning tili o'rganilishi mumkin. Bunda badiiy asarlar tili shu maqsaddagi tadqiqot uchun asosiy material bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va mustahkam lingvistik an'ana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan. Bunday tadqiqotlar qatoriga A.Rustamov, G*.Abdurahmonov F.Abdullayev, X.Doniyorov, B.Bafoyev, F.Ishoqov, B.Turdialiye, T.Jumayev va boshqa ko'plab taniqli tilshunos olimlarning tadqiqot ishlarini ko'rsatish mumkin. Badiiy asar tilini stilistik aspektda o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qilishi tabiiy. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Badiiy asar tilini o'rgangan G.O.Vinokur tilshunoslikda ancha oldindan tilning kommunikativ va ekspressiv vazifalari farqlana boshlaganini ta'kidlar ekan, fikrining dalili sifatida nemis tilshunosi Gabelensning 1891 yilda nashr etilgan asarida: “Til fikrning bo'laklarga bo'lingan holdagi ifodasi, fikr esa tushunchalarning bog'lanishidir. Lekin inson tili faqat bog'lanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarinigina emas, balki so'zlovchining o'z fikriga munosabatini ham ifodalashni istaydi; men faqat nimanidir aytishnigina emas, balki o'zimni ham ifodalashni xohlayman va shu tarzda mantiqiy omilga uni har jihatdan to'yintirgan holda psixologik omil qo'shiladi” degan yondashuvni keltiradi. Tilshunoslikka oid zamонавиylilmiy adabiyotlarda tilning ayrim vazifalari qayd etiladi. Masalan, V.A.Avrarin tilning kommunikativ (aloqa quroli, vositasi), ekspressiv (fikrlarni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilimlarni toplash, saqlash) vazifalarini farqlash lozimligini ta'kidlaydi. M.Yo'ldoshevning badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarida tilning ayni «ekspressiv vazifasi» atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik



vazifasi» kabi atamalarga ham izoh beriladi. Olim «tilning estetik vazifasi» atamasini filologik adabiyotlarda nisbatan ko‘p ishlatilgani, bunday bo‘lishi ham tabiiy ekanini, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarini ham o‘z ichiga olgan holda ularni umumlashtira olishini, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi ancha keng ekanligini ta’kidlaydi.

Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi sohani «lingvistik poetika» – «lingvopoetika» deb nomlash filologiya ilmida ancha turg‘unlashgan hamda «lingvistik poetika»ning filologik ilmlar tizimida alohida mustaqil fan sifatidagi o‘rnini aniqlashtirishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan.

Lingvopoetik tahlil keng qamrovli jarayon. Unda nafaqat adabiyotshunoslik va tilshunoslikning, balki sotsiologiya, psixologiya, estetika, falsafa kabi fanlar erishgan ilmiy-nazariy yutuqlardan foydalanish mumkin. O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili lingvopoetik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan ishlar juda ko‘p. Masalan, bir qator ishlarda Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarining tili badiiy mahorat jihatidan o‘rganilgan, ulug‘ mutafakkirning badiiy uslubiga xos lisoniy vositalarning mohiyatini ochib berishga harakat kilingan.

Sh.Shoabdurahmonovning bir qator ishlarda o‘zbek xalq dostonlari, shuningdek, adiblar badiiy asarlarining tili chuqur tahlil etilgan, leksik-semantik, grammatik birliklarning konkret asardagi badiiy-estetik qimmati ochib berilgan. Badiiy til masalasini ayni lingvopoetik maqsadlar bilan yoritish borasida X.Doniyorov, S.Mirzayev, X.Samadov, I.Qo‘chqortoyev, X.Abduraxmonov, M.Mirtojiyev, N. Mahmudov va boshqalar alohida diqqatga sazovor bir qancha ishlarni yaratganlar. O‘zbek tilshunosligida keyingi o‘n yilliklarda muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo‘llashdagi o‘ziga xosliklarini mufassal ko‘rsatishga bag‘ishlangan juda ko‘plab tadqiqotlar yuzaga kelganligi quvonarlidir. Aytish lozimki, badiiy tilni o‘rganishda ko‘proq leksik birliklarning lingvopoetikasiga e’tibor qilinganligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, E.Qilichev «Badiiy tasvirning leksik vositalari» (E.Qilichev, 1982) deb nomlangan kitobida badiiy tasvirda ishtirot etadigan leksik vositalar, ularning ifoda imkoniyatlari bilan bog‘liq masalalar ustida to‘xtalgan. B.Umurqulovning «Poetik nutq leksikasi» (B.Umurqulov, 1990) nomli monografiyasida hozirgi o‘zbek she’riyati tilining leksik manbalari, poetik leksika, an‘anaviy poetizmlar, so‘z variantlari va ularning estetik qimmati kabi masalalar tadqiq etilgan. Ko‘rinib turganiday, o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilining lingvopoetikasi bo‘yicha ancha-muncha ishlar qilingan.



Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatları borligi aytildi. Tilshunos E. Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» deb nomlangan kitobida «Matn – hamma elementlari o'zaro zinch aloqada bo'lgan va avtor nuqtai nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan ta'rifni keltiradi. Umuman matn, deyilganda nutqiy jarayon mahsuli bo'lgan, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lgan, adabiy shakllangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog'langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asarni tushunmoq kerak.

Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos bo'lgan belgi-xususiyatlarni aniqlash davom etmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати.–Т:Ўзбекистон, 1962. 56-б.
2. Абдураҳмонов F., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари.–Т: Фан, 1984. Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. –Т., 1972.
3. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т: Фан, 1983.
4. Исҳоқов Ф. Гулханийнинг «Зарбулмасал» асари. –Т: Фан, 1976.
5. Турдиалиев Б. Ҳамза ва ўзбек адабий тили. –Т: Фан, 1981.
6. Жумаев Т. Умар Бокий асарларининг лисоний хусусиятлари. НДА., –Т., 1997.
7. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. –М., 1991., с-35.
8. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳдили асослари – Т.: Фан, 2006. 11-б.
9. Э.Қиличев. Бадий тасвирнинг лексик воситалари- 1982
- 10.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.
11. Серл Дж. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике: Теория речевых актов. –Москва, 1986. Вып. ХВИИ. – 170-190 с.
- 12.Б.Умуркулов Поэтик нутқ лексикаси.-1990